

"O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN - MILLIY G'URUR VA FAXR TIMSOLI"

Xo'djanova Mavluda Yuldasheva

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani 3-sonli maktabning O'zbek tili fani o'qituvchisi Tel +998907027523, xodjanovamavluda@gmail.com

Annotatsiya: *"O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — milliy g'urur va faxr timsoli" mavzusi mustaqil O'zbekiston tarixida beqiyos ahamiyatga ega voqeaga bag'ishlangan. 1989-yil 21-oktyabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimizning milliy o'zligini, madaniy merosini va tarixiy qadriyatlarini asrab-avaylash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu sana har yili yurtimizda katta faxr va g'urur bilan nishonlanadi. Mavzu orqali o'quvchilarda ona tiliga hurmat, uni sevish va asrab-avaylash tuyg'ularini shakllantirish maqsad qilingan.*

Kalit so'zlar: *O'zbek tili, davlat tili, 21-oktyabr, milliy g'urur, faxr, ona tiliga hurmat, mustaqillik, madaniy meros, milliy qadriyatlar, til siyosati, vatanparvarlik, ma'naviyat.*

Annotation: *The topic "The Day the Uzbek Language Was Granted the Status of State Language – A Symbol of National Pride and Honor" is dedicated to an event of great significance in the history of independent Uzbekistan. On October 21, 1989, granting the Uzbek language the status of the state language became an important step toward preserving the nation's identity, cultural heritage, and historical values. This date is celebrated every year in our country with great pride and honor. The purpose of this topic is to foster respect, love, and care for the native language among students.*

Key Words: *Uzbek language, state language, October 21, national pride, honor, native language, respect, independence, cultural heritage, national values, language policy, patriotism, spirituality.*

Аннотация: *В статье анализируются этапы становления и развития политической системы Афганистана от монархии до прихода к власти Талибана. В статье системно освещаются переход от монархии к республике, государственное управление в период социалистического режима, политический хаос в период гражданской войны, система, используемая Соединенными Штатами для афганского народа, а также усилия правительства Талибана по завоеванию власти и приходу к власти.*

Описываются первое и второе правительства Талибана и этапы развития институтов с участием США.

Ключевые слова: *Эволюция, модернизация, вмешательство, гендерное равенство, монархия, демократия, ПСР*

Ключевые слова: *узбекский язык, государственный язык, 21 октября, национальная гордость, честь, родной язык, уважение, независимость,*

культурное наследие, национальные ценности, языковая политика, патриотизм, духовность.

KIRISH

Ona tili — har bir millatning ruhiy boyligi, ma'naviy tayanchi va milliy o'zligining eng muhim ifodasidir. Til — xalqning tarixi, madaniyati va an'analarini asrab-avaylovchi, avloddan avlodga bog'lovchi kuchdir. 1989-yil 21-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimiz hayotidagi tarixiy burilish bo'ldi. Bu qaror nafaqat tilning huquqiy maqomini mustahkamladi, balki milliy g'urur va faxr tuyg'ularini yanada yuksaltirdi. Har yili ushbu sana — "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida keng nishonlanadi va u ona tilimizning qadri, mavqei hamda ahamiyatini yuksak darajada e'tirof etish ramziga aylangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun -milliy g'urur va faxr timsoli.

Har yili 21-oktyabr kuni mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili maqomi berilgan kun keng nishonlanadi. Bu kun xalqimiz o'tmishida, millatimiz ongida, tafakkurida va ma'naviyatida alohida o'rin tutadigan faxr-iftixor uyg'otuvchi muhim sanadir

1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan "Davlat tili to'g'risidagi qonun yurtimizda o'zbek tilining maqomini ko'tarish, yuksaltirish, uni davlat va madaniy hayotning barcha tarmoqlarida qo'llash imkoniyatini yaratdi. Ushbu qonun nafaqat tilimizning huquqiy asoslarini mustahkamladi, balki milliy o'zligimizni anglash qadriyatlarimizni asrab avaylash yo'lida ulkan qadam bo'ldi

Til - bu millatning ruhi, uning tarixiy xotirasi, madaniy merosimizning tayanchidir.

XI-asrda yozilgan asarlar sirasiga Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ya'ni (Turkiy so'zlar lug'ati) asari yangi renessans asari deb atashimiz ham mumkin, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ya'ni (Baxtga eltuvchi bilim) asarlari yozilgan.

XV-asrni gullash davri deb hisoblaymiz, chunki Alisher Navoiy yashagan davr. A. Navoiy ikki tilda ijod qilgan. Turkiy tilda Navoiy taxallusi bilan, Forsiy tilida Foni taxallusi bilan ijod qilgan. Shuning uchun Alisher Navoiyning zullisonayn shoir deb ataymiz. Alisher Navoiy davrlarigacha deyarli barcha shoirlar forsiy tilida ijod qilar edilar. Turkiy tilga e'tibor berilmay qolgan, barcha shoh asarlar forsiy tilida yoziladigan edi. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asarini yozib "turkiy" deb atalgan qadimgi o'zbek tilining fors tilidan ham boy ekanini isbot qildi va o'z asarlarini turkiy tilda yozdi. A. Navoiy turkiy tilning qanchalik rang-barang ekanligini isbotlab har bir so'zning sinonimlarini

Masalan: Yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra kabi so'zlarini isbotlab turkiy tilning hamma imkoniyatlarini yoritib beradi.

Alisher Navoiy o'zining bir qancha shoh asarlarini ommaga taqdim qiladi. Shundan keyin barcha buyuk asarlar turkiy tilida yozilgan. O'zbek tili asrlar davomida buyuk adiblar, allomalar va mutafakkirlar tili sifatida shakllanib jahon

madaniyatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Bugungi kunda o'zbek tili xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan adabiyot va san'at sohalarida faol qo'llanilayotgan tilga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Ona tilimiz- milliy g'ururimiz, bebaho boyligimiz va mustaqilligimizning muhim ramzidir.

Ona tilimizni ardoqlash va uni hurmatlash Vatanga bo'lgan muhabbatni, xalqimizga sadoqatni ifodalaydi.

Ustozlar, murabbiylar, ziyolilar, o'qituvchilar va yosh avlod sifatida o'zbek tilining sofligini saqlash, uni sevish va yosh avlodga chuqur hurmat bilan o'rgatishdir. Bu kun har bir ustoz, o'qituvchi o'z faoliyatida o'zbek tilining nodir, betakror, buyuk, maftunkor til ekanligini va nufuzini oshirish uning boy imkoniyatlarini o'quvchilarga o'rgatish orqali milliy urf-odatlar va qadriyatlar targ'ib etishda beqiyos rol o'ynamoqda.

Shunday ekan, 21-oktyabr sanasi bizni yana bir bor tilimizning maftunkorligini, qudratini his qilishga chorlaydi

Tilimiz barhayot, xalqimiz oriyatli, Vatanimiz hur bo'lsin!

XULOSA

"O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — milliy g'urur va faxr timsoli" mavzusi o'quvchilarda ona tiliga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu orqali yoshlar o'z tilining tarixiy ahamiyatini chuqur anglab, uni asrab-avaylash, boyitish va ardoqlash zarurligini his etadilar.

Takliflar: 1. O'quvchilarda tilga hurmat tuyg'usini yanada oshirish maqsadida "Til bayrami" haftaligini tashkil etish.

2. O'zbek tili tarixi, mashhur tilshunoslar va adiblar ijodiga bag'ishlangan ochiq darslar o'tkazish.

3. Ona tilini sevishga undovchi insholar, she'rlar va sahna ko'rinishlari tanlovlarini yo'lga qo'yish.

4. Til madaniyatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar asosida interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish.

5. Har bir ta'lim muassasasida "Til — millat ko'zgusi" burchagini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. — Toshkent, 1989-yil 21-oktyabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat tilini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarorlari.

5. Xudoyberdiyev A. Ona tili — millat g'ururi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.